
YANGI KONSTITUTSIYA. 10 TA ASOSIY O'ZGARISH



Yangi Konstitutsiya. 10 ta asosiy o'zgarish

Er xususiy mulk bo'lishi mumkin

O'zbekistonda 2022 yildan e'tiboran qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiyashtirish boshlangan. Shu bilan deyarli bir vaqtda, o'tgan yili e'lon qilingan yangi konstitutsiya loyihasining birlamchi versiyasida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni xususiyashtirish mumkin emasligiga ishora qilingan edi. Yakuniy talqindan bunday cheklov olib tashlandi va yerni xususiyashtirishga oid norma quyidagicha shaklga keltirildi:

er qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin.

Bosh Qomusning o'tgan yili e'lon qilingan birinchi loyihasida unga quyidagicha jumlani kiritish taklif etilgan edi: "Iqtisodiy faoliyatda insofsiz raqobatga, monopollashtirishga yo'l qo'yilmaydi". Yakunda bu boradagi normalar quyidagicha ko'rinish oldi:

davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi;

monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi.

Shuningdek, hujjatning birlamchi loyihasida mavjud bo'lgan: "Xususiyashtirish natijalari qayta ko'rib chiqilmaydi hamda bekor qilinmaydi" degan norma ham oxir-oqibat Konstitutsiyaga kiritilmadi.

I. Madaminov - So'x tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-16 20:26:59